

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PEDAGOGIK TA‘LIM VA AMALIY FAOLIYATDA KLASTER UYG‘UNLIGI

Qodirova Ulfatxon Mamataliyevna
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim klasteri moduli va texnologiyalari orqali amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari xususida fikrlar bayon etilgan. Maqolaning ilmiy mohiyati ta‘lim tizimida integratsiya jarayonlari va ta‘limni boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi yondashuv – pedagogik ta‘lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etish va uning afzalliklari bo‘yicha so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim tizimi, ta‘lim klasteri, klasterli yondashuv, integratsiya, zamonaviy yondashuvlar.

KIRISH

Respublikamizda barkamol avlod kamoloti, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarga oid masalalarda, zamon talablari asosida yangicha mehanizmlarni tadqiq etish, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini muntazam o‘rganib borish va O‘zbekiston sharoitiga mos, milliy xususiyatlarimizga javob beradigan metodlarni tadbiq etish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta‘lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk va barkamol avlod tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish va zamonaviy, huquqiy hamda ijtimoiy bilimlarni egallashlariga pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muhitni yaratib bera olish masalalari haqida bo‘ljak tarbiyachilarga har tomonlama bilimlar berish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi taraqqiyot etayotgan davrda talabalarga ta‘lim – tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning ortga surib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda pedagogik ta‘lim klasteri va uning amaliyotga tatbiqi muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida keyingi yillarda o‘rganilmoqda.

Bo‘lajak tarbiyachilarni klaster tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mehanizmlarini takomillashtirish O‘zbekistonning ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va bolalar bog‘chalari uchun malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi. Klaster – bu qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini jamlagan korxonalar guruhi.

Klaster tizimi – o‘zaro bog‘langan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar guruhidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlik qilish orqali sohani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tizim sanoat, iqtisodiyot, tibbiyot va ta’lim sohalarida keng qo‘llaniladi. Ta’lim sohasidagi klaster tizimi – o‘quv muassasalari, ilmiy – tadqiqot markazlari, ish beruvchilar va davlat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligiga asoslangan ta’lim modelidir. U kasbiy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan klaster yondashuvi ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, moliyaviy va intellektual resurslarni birlashtirishga imkon beradi hamda bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy va amaliy bilimlarini sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Klaster tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribaga ega bo‘lish imkonini yaratadi. Ta’lim jarayoniga korxonalar, maktabgacha ta’lim muassasalari va o‘quv markazlari jalb etiladi. Kasbiy ta’lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Talabalar o‘z sohasi bo‘yicha ish beruvchilar bilan bog‘lanib, ish o‘rni topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar klaster tizimi orqali innovatsion yondashuvlar va tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta’lim jarayoniga joriy etiladi. Ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik kuchayadi. Oliy o‘quv yurtlari, kollejlari va kasb-hunar markazlari birgalikda ishlash orqali samaradorlikni oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari hamkorlikda ishlaydi. Tarbiyachilar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun turli platformalar, treninglar va kurslar tashkil etiladi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi metodikalar va o‘quv dasturlarini yaratish imkoniyati kengayadi.

Respublikamizda bu borada juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, Andijon davlat pedagogika institutida ham oliygoh rektori B.Rasulov rahbarligida Pedagogik ta’lim klasteri tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajriba o‘rganish maqsadida Qirg‘iziston Respublikasi Osh davlat universiteti bilan o‘zaro zamonaviy yondoshuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar, ilmiy izlanishlar borasida xalqaro hamkorlik va tajriba almashtirish borasida ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Osh davlat universitetida tashkil etilgan klaster ta’limi bo‘yicha “Pedagogik ta’limni tashkil etishda klasterlar” nomli mavzuda hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda. Institut rektori B.Rasulov rahbarligida ikki davlat oliygohlarining ustoz va talabalari o‘zaro do‘stona aloqalar tashkillanib, metod almashtirish borasida ham turli uchrashuv va tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Uchrashuvlar jarayonida har ikki oliygoh tomonidan o‘zlarining ta’lim muassasalari, hamkorlik qilish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari va o‘quv

jarayonlari haqida ma'lumotlar beriladi. Asosiy maqsad Oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin aloqalarni o'rnatish, ikki tomonlama manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishdan iborat.

Prezidentimizning yoshlar haqida bildirgan fikrlari, bu borada kun sayin rivojlanib borayotgan imkoniyatlar, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim va tarbiyaga oid o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumotlar berish bilan birga ularning taklif va mulohazalarini eshitib munosib yechimlar qabul qilib boradi. Bo'lajak tarbiyachilarni klaster tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mehanizmlarini takomillashtirish O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak tarbiyachilarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va bolalar bog'chalari uchun malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonning ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi. Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo'lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning mavzuyidir. U maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalami maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Demak, mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosi hisoblanganidek, mehnat qilishdan ya'ni yoshlar ilm olishdan, pedagog-tarbiyachilar esa yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdan charchamaylik. Mustaqil O'zbekistonimizning yanada ravnaq topishi uchun ijtimoiy taraqqiyotning negizi bo'lgan ish faoliyatimiz faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina bo'lib qolmay, balki xalqqa xizmat qilish, vatan uchun qayg'urish, shaxsiy manfaatdan xalq manfaatini ustun qo'yishning asosi hamdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, klaster tizimi ta'lim sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini ta'minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashda muhimo'rin tutadi.

Bu tizim kelajakda ta’lim sifatini oshirishga va talabalarning kasbiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shu jihatdan olganda, bo‘lajak tarbiyachilarni klaster tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mehanizmlarini takomillashtirish O‘zbekistonning ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va bolalar bog‘chalari uchun malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri-erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o‘z xaq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shuning uchun, ham barkamol insonni tarbiyalash ,avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas’uliyatni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- son Farmoni bilan tasdiqlangan “ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. “Yoshlarga oid davlat siyosati“ to‘g‘risidagi Qonun 2016-yil 14-sentabr.
3. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.” –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-488 bet.
4. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. / Pedagogika fanlari doktori (Doktor of Science) - 2020. – B. 277.
5. Esonova M.A ”Maktabgacha pedagogika”- Toshkent: ”ILM VA FAN” nashriyoti, 2023.276 bet.